



**O'ZBEKISTON YAPONIYA IJTIMOYIY-IQTISODIY MANAVIY
MADANIY MUNOSABATLARI (1991-2016 YILLAR)**

Ernazarov Firdavs Norbobo o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika institute talabasi

Qayumov Shahzod
Shahrisabz davlat pedagogika institute o'qituvchisi

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy munosabatlarning shakllanishi, rivojlanishi va bugungi holati tahlil qilinadi. Yaponiyaning zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish va qo'llash borasidagi tajribasi, O'zbekiston iqtisodiyotida qo'llanilishi mumkin bo'lgan istiqbolli yo'nalishlar bilan uyg'unligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalar va ularning xalqlarning ma'naviy-ma'rifiy o'sishiga ta'siri xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston-Yaponiya munosabatlari, Ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik, Madaniy almashuv, Texnologik innovatsiyalar, Ma'naviy aloqalar, Xalqaro hamkorlik, Investitsiya imkoniyatlari, Ta'lim va fan sohasida hamkorlik.

АННОТАЦИЯ:

В данной статье анализируется становление, развитие и современное состояние социально-экономических, духовных и культурных связей между Узбекистаном и Японией. Обсуждается опыт Японии в разработке и применении современных технологий и его совместимость с перспективными направлениями, которые могут быть использованы в экономике Узбекистана. Речь идет также о культурных связях между двумя странами и их влиянии на духовный и образовательный рост народов.

Ключевые слова: Узбекско-японские отношения, Социально-экономическое сотрудничество, Культурный обмен, Технологические инновации, Духовные



связи, Международное сотрудничество, Инвестиционные возможности, Сотрудничество в сфере образования и науки.

ANNOTATION:

This article analyzes the formation, development and current state of socio-economic, spiritual and cultural relations between Uzbekistan and Japan. It discusses Japan's experience in the development and application of modern technologies, their compatibility with promising areas that can be used in the economy of Uzbekistan. It also discusses cultural ties between the two countries and their impact on the spiritual and educational growth of the peoples.¹

Keywords: Uzbekistan-Japan relations, Socio-economic cooperation, Cultural exchange, Technological innovations, Spiritual ties, international cooperation, Investment opportunities, Cooperation in education and science.

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, ular turli sohalarda o'zaro manfaatli aloqalar shaklida davom etmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, Yaponiya Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim strategik hamkorlardan biri sifatida tanildi. Bu ikki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy aloqalari nafaqat o'zaro manfaatdorlik, balki xalqlarning madaniyatini boyitishga, ma'rifiy rivojlanishga xizmat qilmoqda. Yaponiya texnologiyalar, iqtisodiyot, ta'lim va madaniyat sohalarida dunyoda yetakchi davlatlardan biri sifatida tanilgan. O'zbekiston esa, o'zining boy tarixiy-madaniy merosi va strategik geografik joylashuvi bilan ko'plab mamlakatlar, jumladan, Yaponiya uchun qiziqarli va istiqbolli sherikdir. Ushbu maqolada O'zbekiston va Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari, madaniy hamkorligi va ma'naviy munosabatlari tahlil qilinib, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning 1991-2016 yillgacha bo'lgan holati va rivojlanish istiqbollari o'rganiladi.

¹1. Жўраев С., Аҳмедов О., Раҳимова М. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти: халқаро муносабатлар ва ташқи алоқаларни ташкил қилиш. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. – Б. 244.



1991-yil Yaponiya O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan olib, 1992-yil diplomatiya munosabatlari o'rnatgach, 1992-yilda Yaponiyaning Toshkentdagi elchixonasi, 1996-yilda esa O'zbekiston Respublikasining elchixonasi Tokio shahrida o'z faoliyatini boshladi. Ikki mamlakat o'rtasida teng huquqli aloqalar o'rnatildi. O'tgan 14 yil mobaynida ikki davlat o'rtasida ko'plab rasmiy hujjatlar imzolandi. Shu davr davomida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2-marta (1994, 2002) rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo'ldi. Bundan tashqari, ikki davlat tashqi ishlar vazirlari, hukumatning rahbar va mas'ul xodimlari, Parlament delegatsiyasi va boshqalarning o'zaro tashriflari amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1994-yilning mayida Yaponiyaga qilgan birinchi tashrifi o'zaro siyosiy muloqotni faollashtirdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2002-yil 28—31-mayida Yaponiyaga qilgan ikkinchi rasmiy tashrifi muhim rol o'ynadi. Tashrif chog'ida 14 ta hujjat imzolandi. Bular qatoriga O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risida deklaratsiya, Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarga ko'maklashish haqida qo'shma bayonot va boshqalar hujjatlar kiradi. Tashrif chog'ida Islom Karimov O'zbekistonning Yaponiya bilan hamkorlik qo'mitasi va Yaponiyaning O'zbekiston bilan hamkorlik qo'mitasini tashkil etish tashabbusi bilan chiqsi. Qo'mitalar tashkil etilib, uning birinchi qo'shma majlisi 2004-yil iyulda Tokio shahrida o'tkazildi.[1]

O'zbekistonda 10 ta o'zbekiyapon qo'shma korxonasi, 3 ta 100% Yaponiya sarmoyasi hisobidagi korxona, yapon kompaniyalarining 22 ta vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdoiqtisodiy aloqalar kengayib, 2004-yilda tovar ayirboshlash hajmi 102 mln. AQSH dollariga yaqin bo'ldi. O'zbekiston Yaponiyaga paxta va ipak mahsulotlari, gazlama, noorganik kimyo mahsulotlari eksport qiladi, turli sayyohlik xizmatlari ko'rsatadi. Yaponiyadan esa elektr va mexanik uskunalar, kauchuk va rezina buyumlar va boshqalar oladi. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi 2001-yildan Toshkent — Osaka, 2002-yildan Toshkent—Tokio yo'nalishida doimiy havo qatnovini yo'lga qo'ydi. Yaponiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yo'nalishlaridan



biri kadrlar tayyorlashdir. Hozirgacha respublikaning turli vazirlik va idoralaridan 800 ga yaqin kishi Yaponiyada tajriba orttirib qaytdi, 98 yosh mutaxassis Yaponiyaning yetakchi unversitetlarida magistratura kursini bitirdi. 2000-yildan boshlab Yaponiya xalqaro hamkorlik markazi stipendiyasi asosida yiliga o'zbekistonlik 20 magistrant Yaponiyaga ikki yillik o'qishga bormoqda. 2001-yil Toshkentda O'zbekiston — Yaponiya inson resurslarini rivojlantirish markazi tashkil etildi. Hozirgacha ushbu markazning biznes, yapon tili va kompyuter kurslarini 1500 dan ortiq kishi tugatdi. Umuman markaz o'tkazgan turli madaniy-ma'rifiy dasturlarda 100 mingdan ortiq kishi ishtirok etdi.[2]

1996-yil O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" va 1999-yil "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarlari Yaponiyada yapon tiliga tarjima qilinib chop etildi. Davlatni boshqarish, o'zbek-yapon hamkorligini rivojlantirish va mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasi uchun O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Yaponiyadagi Vaseda va Soka untlarining faxriy d-ri unvoniga sazovor bo'ldi. O'zbek Yapon do'stlik aloqalarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun san'atshunos Ikuo Hirayama O'zbekiston Respublikasi BAning faxriy xorijiy a'zosi etib saylandi (2002), prof. Kyuzo Kato va Vaseda universiteti prezidenti Takayashi Okushima O'zbekiston Respublikasining Do'stlik" ordeni bilan mukofotlangan (2002). 2004-yil martda Tokiodagi Soka untida buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyga haykal o'rnatildi (haykaltarosh R. Mirtojyev). 2004-yil O'zbekistonga 3000 yapon sayyohi kelgan. Ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanishiga Yaponiyada "Yaponiya O'zbekiston" ²do'stlik jamiyati (1998 yil tashkil etilgan), Fukusima O'zbekiston iqtisodiy va madaniy aloqalar uyushmasi, "Fukuoka O'zbekiston" jamiyati, "Ota Toshkent" do'stlik jamiyati, O'zbekiston Respublikasida "O'zbekiston Yaponiya" do'stlik jamiyati (1999-yil tashkil etilgan) munosib hissa qo'shib kelmoqda. 2002-yil apr.da Yaponiya parlamentida mamlakatning nufuzli siyosiy arboblari Taro Aso, Yoshiro Mori va boshqalar

² 2. Takeshi Y. Japan's Multilateral Approach toward Central Asia. – P. 67–68. //URL: www.srch.slav.hokudai.ac.jp/coe21/publish/no16.../04_yuasa.pdf

3. Savdo-iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. 04/13/2016//Int.: <https://mineconomy.uz/uz/node/1153>



tashabbusi bilan "Yaponiya liberaldemokratik partiyasi — O‘zbekiston" do‘stlik ligasi tashkil etilgan.[3]

Yaponiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda bir qator infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirilib foydalanishga topshirilgan. 2007-yilda shunday loyihalar qatorida “Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on” temiryo‘l yo‘nalishi qurib bitkazilgan. Bundan tashqari, 2010-yilda Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasini modernizatsiya qilishni moliyalashtirishga mo‘ljallangan 300 million AQSh dollari miqdoridagi mablag‘ ajratish borasidagi bitimning imzolanishi issiqlik ajratish samaradorligini 30 foizdan 50 foizgacha oshirish hamda uglerodlar emissiyasini qisqartirish imkonini yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik “Do‘stlik, strategik sheriklik va hamkorlik tog‘risida” hamda “Iqtisodiy hamkorlik va O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlarga ko‘maklashish to‘g‘risida”gi qo‘shma bayonotlar, “Texnik hamkorlik to‘g‘risidagi” va ”Investitsiyalarni rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi” bitimlar asosida tartibga solinib turiladi[4]

O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning fevral oyida Yaponiyaga rasmiy tashrifi, Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abening 2015-yil oktabrida mamlakatimizga qilgan rasmiy tashrifi o‘zaro ishonch, ochiqlik va o‘zaro hurmatga asoslangan oliy darajadagi faol siyosiy muloqotlarni chuqurlashtirishga ko‘maklashdi. Tashrif paytida O‘zbekiston bilan Yaponiya o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonot hamda bir qator sohalar doirasida hujjatlar imzolanganligi o‘zaro savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy, madaniy-gumanitar aloqalar kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi.[5]

O‘tgan yillar mobaynida ikki mamlakat rahbarlari o‘rtasida ko‘plab oliy darajadagi uchrashuvlar amalga oshirildi hamda rasmiy hujjatlar imzolandi. Xususan, 1994-yil, 2002-yil va 2011-yilda Yaponiyada hamda 2006-yil avgustda O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan mamlakat rahbarlari o‘rtasidagi oliy darajadagi uchrashuvlar ikki mamlakat o‘rtasidagi manfaatli va do‘stona aloqalarga yangicha ma‘no-mazmun bag‘ishladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2002-yilda Yaponiyaga davlat tashrifi doirasida Yaponiya Bosh vaziri J.Koidzumi bilan uchrashuvida strategik sheriklik, o‘zaro do‘stlik va



hamkorlik to'g'risidagi Qo'shma bayonot imzolandi. Ushbu bayonot ikki mamlakatning hozirgi zamon xalqaro munosabatlardagi ko'plab muammolar bo'yicha qarashlari va munosabatlari o'xshashligi, shuningdek, ularning ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishga intilishlarini tasdiqlovchi rasmiy hujjat bo'lib xizmat qildi. Tashrif chog'ida 15 ga yaqin shartnomalar imzolandi.[6]

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2011-yil fevralda Yaponiyaga qilgan navbatdagi davlat tashrifi davomida ham ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, turli sohalarga investitsiyalar jalb qilish va diplomatik aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi qator shartnomalar tuzishga erishildi. Bundan tashqari, 2015-yilning oktabr oyida Yaponiya bosh vaziri Sindzo Abening O'zbekistonga tashrifi doirasida umumiy qiymati 9 mlrd. dollarni tashkil qiladigan loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi. Yaponiya tomonidan asosiy e'tibor mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. O'tgan yillar mobaynida yapon texnologiyalari va investitsiyalarini O'zbekistonning mashinasozlik, energetika, neft-gaz, kimyo, va to'qimachilik sanoati kabi tez rivojlanayotgan sohalariga jalb etish uchun qator shartnoma va bitimlar tuzishga erishildi.[7]

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy munosabatlar ikki davlatning o'zaro manfaatdorligi va strategik hamkorligi natijasida izchil rivojlanmoqda. Yaponiyaning texnologik taraqqiyot va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlari O'zbekiston iqtisodiyotining turli sohalarini modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. O'z navbatida, O'zbekistonning boy madaniy merosi va tarixiy an'analari Yaponiya jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otmoqda va bu ikki davlat xalqlari o'rtasidagi madaniy almashuvni yanada mustahkamlamoqda. Ikki davlat o'rtasidagi ta'lim va ilmiy hamkorlik doirasida yosh avlod uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, Yaponiya investitsiyalari va texnologiyalari yordamida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash, yangi sohalarda qo'shma



tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Ushbu aloqalar ikki davlat rivoji va xalqaro hamjamiyatda ularning mavqeini mustahkamlashga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Жўраев С., Аҳмедов О., Раҳимова М. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти: халқаро муносабатлар ва ташқи алоқаларни ташкил қилиш. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси, Фафур Гулом номидаги нашриёт–матбаа ижодий уйи, 2008. – Б. 244.
2. Takeshi Y. Japan's Multilateral Approach toward Central Asia. – P. 67–68.//URL: www.srch.slav.hokudai.ac.jp/coe21/publish/no16.../04_yuasa.pdf
3. Savdo-iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. 04/13/2016//Int.: <https://mineconomy.uz/uz/node/1153>
4. Speech by Mr. Taro Aso, Minister for Foreign Affairs at the Japan National Press Club. Central Asia as a Corridor of Peace and Stability, June 1, 2006//URL: <http://www.mofa.go.jp/region/europe/speech0606.html>
5. Президент Ислам Каримов 6 августа в резиденции Оксарой принял министра экономики, торговли и промышленности Японии Тошимицу Мотэги/ Int: <https://mf.uz/uz/component/k2/item/111-gorod-tashkent.html>
6. Japan-Uzbekistan Summit erp/ca_c/uz/page4e_001170.html
7. Meeting. December 19, 2019//<https://www.mofa.go.jp/> Добринская О. «Мягкая сила Японии» в странах Центральной Азии. 2014